

ARAB TILSHUNOSLIGI

Andijon davlat chet tillari instituti

IFO'MT fakulteti, FTO arab tili

yo'nalishi AF-25-2 guruh talabasi

Najmiddinova Mubina Asliddin qizi

Ilmiy rahbar: **Kabulova U.S.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilshunosligining kelib chiqish tarixi, uning asoschilari hamda bunga sabab bo'lgan omillar o'rganiladi. Tilshunoslikni shakllantirishda foydalanilgan manbaalar hamda rivojlantirish jarayonida amalga oshirilgan ilmiy yozma ishlar ko'rsatilib, bu haqida fikr va mulohazalar ochiqqlanadi.

Kalit so'zlar: *lisoniy maktablari, klassik arab tili, leksikografiya, terminlar, Kitobul ayn, falsafa.*

Аннотация: В данной статье рассматривается история возникновения арабского языкознания, его основоположники, а также факторы, повлиявшие на его формирование. Указываются источники, использованные при становлении лингвистики, и научные письменные труды, созданные в процессе её развития. Также приводятся мнения и рассуждения по данной теме.

Ключевые слова: *лингвистические школы, классический арабский язык, лексикография, термины, Кутаб аль-Айн, философия.*

Abstract: This article examines the history of the origin of Arabic linguistics, its founders, and the factors that influenced its formation. It highlights the sources used in the development of linguistics and the scientific written works produced during its evolution. In addition, opinions and reflections on this topic are presented.

Key words: *linguistic schools, classical Arabic language, lexicography, terms, Kitab al-Ayn, philosophy.*

O'rta asrlarning 'qora' davridan o'tib olgan arablar har sohada rivojlanishga harakat qilishgan va VII-XII asrlar oralig'ida o'z tilshunosligini yaratishga erishdilar. Arab tilshunosligining yaratilishida asosiy sabab bu klassik arab tilini saqlab qolish bo'lgan. Arab xalifaligi islom diniga asoslangan ko'p millatli davlat bo'lib, xalifalikda ish yuritish vositasi va fan tili arab tili hisoblangan. Ko'p millatli bo'lganligi sababli arab tilida turli xil shevalar paydo bo'lgan va VII asrga kelib og'zaki va yozma nutqdagi arab tilida sezilarli farqlar kelib chiqqan. Ilk qadamlar Basra hamda Kufa shaharlarida qo'yilgan, u yerdagi ikkita lisoniy maktablarida tilshunoslik haqida fikrlar almashilgan va Basra grammatika maktabining vakili Xalil al-Faroxidiy (718-791) arab tiling birinchi lug'atini yaratgan va unga "Kitobul ayn" deb nom bergan. Arab

tilshunoslari leksikografiyaga chuqur yo'ndashishganliklarini ushbu asarlardan bilib olsa bo'ladi.

Abu-Abayda (770-837) so'z va iboralarning keng qamrovli lug'atini tuzgan;

Bog'dodlik Sag'ani (1181-1252) "To'lqinlar toshqini" nomli 20 tomlik lug'at yaratgan;

Misrlik ibn Mansur (1232-1311) katta hajmli "Arab tili" lug'atini tuzgan;

Sherozlik Feruzobodiy (1329-1414) 60 tomlik lug'at tuzgan va uni "Qomus" deb nomlagan.

Arab tilshunosligini yaratishda hind va yunon tilshunosliklaridan foydalanilganligi haqida bir qancha fikr-mulohazalar mavjud. Arab tilini so'z turkumlariga ajratishda yunon faylasufi Aristotelning matnig'idan foydalanishgan bo'lsalar, sonlari hind tilshunosligi bilan bog'liq. Shuningdek, yunon tilshunosligidagi ko'plab terminlar arab tilshunosligiga o'zlashtirib olingan. Misol uchun yunoncha φιλοσοφία terminini arablar فلسفة deb o'zlashtirib olishgan. Lekin yunonlardan farqli, arab tilshunoslari leksikografiya ga ko'proq e'tibor berishgan.

Tanganing ikkinchi tomonidan qaralsa, yunon va hind bilimlarini arab tiliga tarjima qilinishi arab davlatlari shu bilan birga boshqaruvidagi o'rta osiyo davlatlarida 'Birinci Renessans' bo'lishining asosiy sabablaridan biri bo'lgan. Ko'plab osiyolik allomalar yunon falsafalarini va hind bilimlarini arab tilida o'rganib, o'z egallagan bilimlarini ham arab tilida ilmiy ish sifatida kelajak avlodgayozib qoldirganlar.

Xulosa qilib aytganda, arab tilshunosligini yaratilishi arablar boshqaruvidagi davlatlarga ijobiy ta'sir qilgan. Tilni tartibga solinishi, uni o'rganishni osonlashtiradi va tilni buzilishlardan saqlab qoladi. Arab tilshunosligi yaratilishi 'mukammal yozish uchun puxta ishlangan grammatika kerak bo'ladi' deya ta'riflay olamiz.

Adabiyotlar:

1. Usmonov A.- Umumiy tilshunoslik Toshkent, 1972
2. Rasulov R.- Umumiy tilshunoslik Toshkent, 2010
3. Georges Bohas, Jean-Patrick Guillaume, Djamel Kouloughli – The Arabic linguistic tradition London, 1990
4. Azimov.I, Tojiboyeva.M, G'oziyev.A – Eski o'zbek yozuvi Toshkent, 2019